

14-mavzu: Korxonalarga servis xizmati ko'rsatuvchi ishchilarni sonini, chilangarlik ustaxonalarini maydonini xisoblash va ularda jixozlarni joylashtirish



Reja:

1. Chilangarlik mexanika ustaxonasida (CHMU) stanochniklar sonini xisoblash.
2. Chilangarla sonini xisoblash.
3. CHMU maydoni yuzasini xisoblash.
4. CHMU da jixozlarni joylashtirish

1. Chilangarlik mexanika ustaxonasidagi ishchilar soni

CHMUda metallqirgish dastgoxlarida ishlovchi ishchilar soni quyidagi formula bo'yicha xisoblanadi:

$$R_{cm} = \frac{F_{q.f.o} \cdot m \cdot \eta \cdot S_{cm}}{F_{q.f.p} \cdot m_1 \cdot \alpha}$$

bu yerda: R_{st} – metallqirgish dastgoxlarida ishlovchi ishchilar soni;

$F_{q.f.o}$ – jixozlarni xaqiqiy yillik ish vaqti fondi;

m – CHMU da jixozlarni ishlash ish smenasi;

η - jixozlarni yuklanish koeffitsiyenti;

$F_{q.f.r}$ – ishchilarni xaqiqiy yillik ish vaqti fondi;

m_1 – CHMU da ishchilarni ishlash ish smenasi;

α - ishchilarni ish unumdorligini oshishini xisobga oluvchi

koeffitsiyent

CHMU dagi chilangarlarni soni quyidagicha xisoblanadi

$$R_{sl.} = a \cdot R_{st}$$

bu yerda: $R_{sl.}$ – CHMUdagi chilangarlar soni;

$a=0,55-0,60$ – metallqirqish dastgoxlarida ishlovchi ishchilar sonini xisobga oluvchi koeffitsiyent;

R_{st} – metallqirqish dastgoxlarida ishlovchi ishchilar soni.

CHMUdagi umumiy ishchilar soni:

$$R_{obsh} = R_{ct} + R_{sl.}$$

CHMUni xisoblangan ish maydoni quyidagi formula bo'yicha xisoblanadi:

$$F_{rasch.} = S \cdot f_1 + R_{sl.} \cdot f_2 \text{ [m}^2\text{]}$$

bu yerda: $F_{rasch.}$ – CHMUnit xisoblangan ish maydoni, [m²];

S – asosiy mektallqirqish dastgoxlari soni;

f_1 – bir dona metallqirqish dastgoxi uchun solishtirma maydon;

f_2 – bir ishchi joyi uchun solishtirma maydon;

$R_{sl.}$ – CHMudagi chilangarlar soni.

Quvvati bo'yicha CHMUda bir metallqirqish dastgoxi uchun mos keluvchi solishtirma maydon


| Ustaxona nomi | CHMU quvvati, dastgoxlar soni | | | | | | |
|---------------|---|----|----|----|----|----|----|
| | 10 | 15 | 20 | 25 | 30 | 35 | 40 |
| | Bir metallqirqish dastgoxi uchun solishtirma maydon, m ² | | | | | | |
| CHMU | 32 | 28 | 25 | 22 | 20 | 20 | 18 |

Bir ishchi joyi uchun solishtirma maydon 9-12 m². Bir metallqirqish dastgoxi uchun solishtirma maydon 18-22 m².

Ustaxonani xaqiqiy maydoni unda jixozlarni va inventarlarni joylashtirgandan keyin aniqlanadi.

2. Ustaxonada metall qirqish dastgoxlarini joylashtirish

CHMUda metallqirqish dastgoxlarini ikki usulda joylashtirish mumkin: jixozlarni turi bo'yicha va texnologik jarayonlarni bajarish ketma-ketligi bo'yicha.



Birinchi usul kamseriyali va yakka ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Avval tokarlik, keyin frezerlik va x.k. joylashtiriladi, jilvirlash dastgoxlari vertilyatsiyasi yaxshi bo'lgan uchastkada bo'lishi kerak.

Kata tokarlik dastgoxlari ustaxonaga kiraverishda, eshikka yaqinroq joylashtiriladi, bu zonada kran-balka va telfer qo'zda tutiladi. Dastgoxlarga maksimal kunduzgi yorug'lik tushadigan bo'lishi kerak.

Fishka (dastgolar belgisi) yordamida ma'lum masshtabda avval dastgoxlar joylashtiriladi, bunda «Avtokad» dasturidan foydalanish taklif qilinadi

CHMU da jixozlarni joylashtirilishi 12-rasmda keltirilgan.

Ustaxonalarni loyixalashda jixozlarni joylashtirish 1:50, 1:100, 1:200 masshtabda bajarilishi lozim.